

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining
2026-yil 16-yanvardagi
27-01-son buyrug'iga
2-ilova

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
USLUBIYATI**

Mazkur Uslubiyot Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet tizimi) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Universitet faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu Uslubiyatda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi — Universitet faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarni amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash — Universitet faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar — aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo‘linma — Universitetdagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilma;

ishchi guruh — korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo‘lmaganda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Universitet tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) va Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarni oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Universitet barcha tarkibiy bo‘linmalarni qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a‘zolari Universitetning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Universitetning birinchi rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Universitet maxsus bo‘linmasi (ishchi guruh) tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Universitet tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Vazirlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Universitetdagi maxsus bo‘linma (ishchi guruh) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ishlab chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

10. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan Universitet faoliyatining (vazifa va funksiyalari) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Universitet faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Universitet faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;

odob-axloq komissiyasi majlislarining yig‘ilish bayonnomalari;

korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;
maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan Universitet faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Universitet faoliyati to'g'risidagi, huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

Vazirlik tomonidan Universitet faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Maxsus bo'linma (ishchi guruh) Universitetning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Universitet xodimi tomonidan sodir etilgan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik;

Universitet tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Universitet faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korruptsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

past

o'rta;

yuqori.

16. Maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan korruptsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

17. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va Universitet faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Universitet faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Universitet xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Universitet tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarini, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish

mexanizmlarini yo‘q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Universitet tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatlarga har kuni, o‘zaro va to‘liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Universitet korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha mazkur Uslubiyatning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Universitetning maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

20. Universitet tomonidan ushbu Uslubiyatning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar Universitetning maxsus bo‘linmasiga (ishchi guruhiga) umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

21. Universitetning maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan Universitet faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Universitetning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va 10-yanvar kuniga qadar Vazirlikka taqdim etiladi.

22. Universitetning maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan Vazirlikka taqdim etish uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;

Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi

23. Universitetning maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) Vazirlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Universitetning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

24. Rektor har yili 1-fevralga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur Uslubiyat talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash uslubiyotiga
1-ILOVA**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)

TAVSIFI

[illegible]

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga
2-ILOVA**

**Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha
MEZONLAR**

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori *	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qaror loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	universitetning faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta *	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	universitetning faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past **	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	universitetning faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*Maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan universitetning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarining yuqori yoki o'rta darajada deb baholash universitet rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

**Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga 3-ILOVA**

_____ ni faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI

T/ r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga masʼul boʻlgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Masʼul ijrochilar
	1. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*						
1.	1. Universitet funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*						
2.	1. Universitet funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

**Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga 4-ILOVA**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining
korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
------------	--	--------------------------------------	---------------------	---------------------------------

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2022-y., 10/22/3383/0785-son)

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun tashkilot
tizimi bo'linmalarini tasniflash bo'yicha so'rovnoma
SHAKLI**

Quyidagi savollarga javob bersangiz (kerakliklisini tagiga chizing):

1. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

2. Tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

3. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng davlat boshqaruv organlari faoliyati/tuzilmasida tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajarilayotgan funktsiyaga ta'sir qilgan/ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qandaydir o'zgarishlar yuz berdimi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko'zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta'riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qisman amalga oshirilgan bo'lsa, sababini yozing.

A) Ha B) Yo'q V) Qisman amalga oshirilgan

5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida funksiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

№	Tashkilot nomi	Tashkilot tuzilmasi nomi	Funksiyalar o'zgargani sabablari	O'zgargan funktsiya ta'rifi	Funksiya doirasida bajarilayotgan yangi/o'zgargan tartib-taomillar	Tartib-taomillarni bajarish uchun mas'ul shaxslar (FISH, lavozimi)
1.1.1.						
1.1.2.						
...						

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Bo'linma _____

To'ldirayotgan shaxsning lavozimi _____

To'ldirayotgan shaxsning FISH _____

Imzo _____

To'ldirish sanasi _____